

# Koreya jahonda

# **Mundarija**

1. Kirish
2. Tarixga nazar
3. Iqtisodiy taraqqiyot
4. Demokratik islohotlar
5. Koreya Respublikasi jahon sahnasida

## 1. Kirish

Koreya Respublikasi (Janubiy Koreya) Koreya yarimorolining janubiy qismida joylashgan. G'arbda Sariq dengiz orqali Xitoy bilan, sharqda esa Sharqiy dengiz orqali Yaponiya bilan chegaradosh. Koreya Xalq Demokratik Respublikasi (Shimoliy Koreya) yarimorolning shimoliy qismini tashkil qiladi.

### Umumiy ma'lumotlar

- Rasmiy nomi: Koreya Respublikasi
- Geografik joylashuvi: shimoliy kenglik bo'yicha  $38^{\circ}$  и  $33^{\circ}$  va sharqiy uzunlik bo'yicha  $126^{\circ}$
- Maydoni: 100,266km<sup>2</sup> (2013)
- Poytaxti: Seul (9,926,000 kishi) (2013)
- Aholisi: 50,220 000 kishi (2013)
- Aholining zichligi: 501 kishi/km<sup>2</sup> (2013)
- Tili: koreys (yozuv tizimi: Xangil)
- Dini: buddaviylar (22,8%), protestantlar (18,3%), katoliklar (10,9%), boshqa dinga e'tiqod qiluvchilar (1,1%), hech bir dinga e'tiqod qilmaydiganlar (46,9%)
- Boshqaruv tizimi: prezidentlik respublikasi
- O'rtacha havo harorati: -2,5 darajadan (yanvar) 25,4 darajagacha (avgust)
- Milliy bayrog'i: Txegikki
- Milliy guli: Mugunxva («Sharon atirguli» yoki Suriya gibiskusi)

### Iqtisodiy ma'lumotlar

- Yalpi ichki mahsulot (YIM) (nominal): 1,417 mlrd. AQSH dollari (2014)
- Aholi jonboshiga YIM (nominal): 28,101 AQSH dollari (2014)
- YIM (XQP - xarid quvvati pariteti): 1,779 mlrd. AQSH dollari (2014)
- Aholi jonboshiga YIM (XQP): 35,277 AQSH dollari (2014)
- YMM (yalpi milliy mahsulot) (nominal): 1,366 mlrd. AQSH dollari (2014)
- Aholi jonboshiga YMM (nominal): 27,090 AQSH dollari (2014)
- YMM (XQP): 1,746 mlrd. AQSH dollari (2014)
- Aholi jon boshiga YMM (XQP): 33,620 AQSH dollari (2014)
- Eksport: 573 mlrd. AQSH dollari (2014)
- Import: 526 mlrd. AQSH dollari (2014)
- Jini koeffitsienti: 31,1 (2011)
- IFI (Inson farovonligi indeksi): 0,891 (15-o'rin) (2013)
- Assosiy sanoat mahsulotlari: yarimo'tkazgichlar, avtomobillar, kemalar, elektronika, simsiz aloqa vositalari, temir
- Valyutasi: vona (KRW, Janubiy Koreya vonasi) (\$ 1 = KRW 1,060) (2014)

## **2. Tarixga nazar**

### **KOREYANING QADIMGI TARIXI**

Qadimgi tosh davrida Koreya yarimorolida odamlar istiqomat qilardi. Bronza davriga kelib yarimorolda yashovchilar rasman birinchi Ko-Choson (yoki Qadimgi Choson) davlatiga asos solishgan. Koreyslar hozirgacha Qadimgi Chosonning asoschisini "Tangun bobo" deb nomlashadi. Qadimgi afsonaga ko'ra, Tangun osmonidan yerga insonlar bilan yashashga tushgan Osmon Hukmdorining o'g'li – Xvanun va onaayiqning farzandi hisoblanadi.

Qadimgi Choson Koreya yarimorolining shimoliy qismini hamda hozirgi Manchjuriya hududining katta qismini boshqargan. Miloddan avvalgi 108-yil Xan dinastiyasi tomonidan vayron etilgunga qadar, bu mamlakat uzoq muddat davomida rivojlanib borgan.

### **KOREYADAGI UCH QIROLLIK**

Yarimorolda hukmronlik uchun uchta koreys qirolliklari kurash olib borishgan va eng keskin davr mil.av. I asrdan milodiy VII asrgacha bo'lgan davrga to'g'ri keldi. Natijada, shimolda Koguryo, janubi-g'arbda Pekche, janubi-sharqda Silla davlatlarini Silla qirolligi hukmdori milodiy 676-yilda yagona Silla qirolligi bayrog'i ostida birlashitirdi. Silla qirolligi hukmronligidagi tinchlik davri X asr boshlariga qadar davom etdi, keyinchalik qirollik kuchsizlana boshladi va 935-yilga kelib Koguryo hukmronligiga o'tdi. Birlashgan Silla qirollik davrida san'at va ilm-fan, ayniqsa, arxitektura, astronomiya, qishloq xo'jaligi va adabiyot sohalarida, shu bilan birga, buddizmni o'rganishda ahamiyatga molik o'zgarishlar sodir bo'ldi.

#### ***Koreyada e'tiqod***

Milodiy 372-yilda Koreys yarimorolida Xitoydan kirib kelgan buddizm tarqala boshladi hamda koreyslar hayoti, ongi, fikrashi, madaniy va ma'naviy hayotiga tez sur'atlarda singib ketdi. Koryo davrigacha Uch davlat hukmronligi davrida buddizm asosiy e'tiqod qilinuvchi dinga aylandi. Keyinchalik Choson sulolası davri (1392-1910)da konfutsiylik rasmiy din sifatida shakllandi.

Katoliklik va protestantlik yarimorolga XVIII asrning oxirlari va XIX asrda kirib keldi. Avvaliga, hukumat xristianlikka qarshi chiqishgan, lekin XIX asr oxiri XX asrda xristianlik tarafдорлари ortib borgan. Hozirgi kunga kelib 30 foizga yaqin koreys xalqi xristianlik diniga e'tiqod qiladilar. Shuni ham aytib o'tish joizki, buddizm hozirgacha zamonaviy Koreyada muhim o'rин tutadi, bundan tashqari konfutsiylik ham ijtimoiy hayotga, ayniqsa, mehnat jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, Janubiy Koreyada islam kabi boshqa diniy konfessiyalar ham mavjud.

## KORYO VA CHOSON

### < Koryo >

Koryo davlati 935-yilda Silla davlatini bosib olib orqali tashkil etildi. Koryo buddizmni milliy din sifatida tan oldi, buddizm asarlarining ko‘philigi shu davrda yaratilgan. Hukumat tashqi siyosatda ochiqlikni qo‘llab-quvvatlagan. Shu asnoda, Koryo nomi hozirgi Koreya davlatining asosi bo‘ldi. Koryo davlatining hukmonligi XIV asrning oxirida Choson sulolasini shakllanishigacha - 470 yil davom etgan.

### *Koreana Tripitakasi*

Koreana Tripitakasi qadimgi buddizm yozuvlarining nisbatan yetuk jamlanmasi hisoblanadi. U 81 258 dona taxtachaga o‘yib yozilgan yozuvlardan iborat bo‘lib, ularda davlatni mongollar hujumidan asrash haqida Buddaga qilingan iltijolar yozilgan. Bu jarayon XIII asrda Koryo davlati hukmonligi davrida tugatilgan. Har bir taxtachaning bir tomonida 320ga yaqin xitoy iyeroglifi o‘yib bitilgan. Umuman olganda, taxminan 52 million iyerolif izchillik va ehtiyyotkorlik bilan o‘yib chiqilgan. Butun jamlanmadan deyarli xato topib bo‘lmaydi.

### < Chikchi >

*Chikchi* (*Buddaviylik ruhiga erishmoq haqida buyuk monaxlar izlanishlarining antologiyasi*) – bu 1377-yilda Xindoksa ibodatxonasida bitilgan buddaviylar hujjatining qisqartma nomi.

*Chikchi* harakatlanadigan tipografik uskunada bosib chiqarilgan eng qadimgi kitob hisoblanadi. U 1450-yillarda bosilgan 42 satrli Gutenberg Injilididan 78 yil avval yozilgan. Hozirda *Chikchi* Fransiya Milliy kutubxonasi qoshidagi Sharqiy Qo‘lyozmalar bo‘limida saqlanadi. 2001-yilda YUNESKO bu asarni o‘zining “Dunyo xotirasi” xalqaro hujjat yodgorliklarini asrash bo‘yicha dasturi tarkibiga kiritgan.

### < Choson >

Choson dinastiyasi Koreya yarimorolini 500 yildan ortiq vaqt mobaynida boshqargan. Choson dinastiyasiga Koryo davlati (918-1392) qulaguncha bo‘lgan davrda general bo‘lgan Li Son Ge (qirol Txedjo nomi bilan ham mashhur) asos solgan. Choson davlatining poytaxti Xanyan shahri (hozirgi Seul) bo‘lgan.

Choson sulolasining hukmdorlari konfutsiylik ideallari va doktrinalarini jamiyatga tatbiq etishardi. Oila va maktablarda konfutsiylik madaniyati va qadriyatlarini o‘rgatishar edi. Konfutsiylik imtihonidan o‘ta olgan insonlargina, davlat a‘yonlari bo‘la olishgan. Buyuk Sedjon (1418-1450, Qirol Txedjoning pandnabirasi) Qirollik qilgan davrning boshida madaniy yangiliklar keskinlik bilan rivojlandi. Qirol Sedjon koreys alifbosi bo‘lgan

Xangilni yaratgan insondir.

Sulola hukmronligining o‘rtalariga kelib, Qirollik hududiga Yaponiya (1592-1598) va Manchjuriya (1627-1637) bostirib kirishi bilan, mamlakat inqirozga yuz tutdi. Lekin Choson hukmronligi 2-yarmida Choson hozirgi Koreya hududidagi hukmronligini mustahkamladi hamda mumtoz koreys madaniyati, savdo, ilm-fan, adabiyot va texnologiya sohalarida rivojlanish cho‘qqisiga erishdi.

XX asrga kelib Koreya turli tashqi qiyinchiliklarga duch keldi hamda xalqaro urushlar sababchisiga aylandi. Buning oqibatida 1901-yilda u Yaponiya tomonidan egallab olindi.

Choson sulolasi zamonaviy koreys jamiyat madaniyat qoidalari, hayot tarzi, huquqshunoslik tizimi, qariyalar va yoshlar o‘rtasidagi ijtimoiy aloqalar hamda jamiyatning hozirgi davrdagi dolzarb muammolariga bo‘lgan munosabatini shakllantiruvchi poydevorni tashkil etuvchi boy meros qoldirdi.

### **Xangil: Koreys alifbosi**

Buyuk Sedjon Qiroli (1418-1450) Koreya tarixidagi eng buyuk hukmdor hisoblanadi. U 1443-yilda koreys alifbosi - Xangilni yaratgan Chipxyondjon ilmiy-tadqiqot maskanini qayta tashkil etdi. Ushbu ulkan yutuq tufayli koreys xalqi xitoy iyerogliflari o‘rniga o‘z fonetik yozuvini qo‘llay olgan. Ilmiy soha vakillari baribir xitoy iyerogliflaridan foydalanganlariga qaramasdan, adabiyotlarning katta qismi ko‘pchilik aholi tushuna oladigan tilda yozildi.

Koreys tilidagi undosh va unlilarni ifodalovchi harflar mantigan to‘g‘i va aniqligidan, har qanday inson ularni bir necha soat o‘rganish mobaynida yodda saqlab qolishi mumkin. Shu sababli ham, Xangil dunyoda eng yuqori ilmiy darajadagi yozuv tizmlaridan biri sifatida saqlanib qolmoqda.

### **Koreyaning tarixiy qishloqlari: Xaxve va Andong**

Xaxve va Andong - Koreyaning eng mashhur tarixiy qishloqlaridan biri bo‘lib, ularda mana besh yuz yildan buyon oilaviy urug‘doshlik tizmi avloddan avlodga o‘tib kelmoqda. Juda ajoyib manzaraga ega tabiatda yashaydigan qishloq aholisi o‘zlarining asrlar bilan charxlangan hayot tarzi va konfutsiylik olimlari oilalarining urf-odatlarini saqlab qolishgan. Ular insonlarda milliy tarix va urf-odatlaning beqiyos ahamiyatini ko‘rishga, his qilishga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otishning asosiy vositasi hisoblanadi. 2010-yilda bu ikki qishloq YUNESKOning Xalqaro meroslari ro‘yxatiga kiritilgan.

## **YARIMOROLNING BO‘LINISHI**

### **< 1-martdagi harakat >**

Koreys yarimorolining zamonaviy davri qiyinchiliklar bilan boshlandi. 1910-yilga kelib Yaponiya imperiyasi Koreyani butunlay bosib oldi hamda koreys xalqi juda mushkul sharoitda davlat mustaqilligi (suveriniteti)ni qaytarib olish uchun kurasha boshladi.

1919-yilning 1-martida 33 ta atoqli koreys peshqadami tomonidan imzolangan Koreya Mustaqillik deklaratsiyasi qabul qilindi. Bu hodisa yapon okkupatsiyasiga qarshi kurashda katta qadam bo‘ldi. O’sha davrga kelib, nafaqat mamlakat ichida, balki tashqarisida ham siyosiy va qurolli to‘qnashuvlar bo‘lib o’tdi. Koreya Respublikasining vaqtinchalik hukumati Xitoyning Shanhay shahrida joylashdi.

### **< Ozodlik va urush >**

1945-yilning avgustiga kelib Koreys yarimoroli Ikkinci Jahon urushidan so‘ng Yaponiya kapitulyastsiyasidan keyin ozod qilindi. Yapon armiyasining qolgan qismini sovet va amerika askarlari bo‘lib olayotgan bir paytda yarimorol hududi 38-paralleldan ikkiga ajralgan. Qisqa qilib aytadigan bo‘lsak, Koreya ikki qudratli mamlakatning geosiyosiy qurbaniga aylangan.

1948-yil 15-avgustda yarimorolning janubiy qismida o‘z demokratik tamoyillari va erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan mustaqil Koreya Respublikasi deb nomlangan davlat yaratildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti boshqaruvi ostida Janubiy Koreya (Koreya Respublikasi) xalqi Milliy Majlisni sayladi. Shundan so‘ng Milliy Majlis Amerikada tahsil olib kelgan, istiqlol uchun harakatda yetakchilik qilgan doktor Li Sin Manni mamlakatning birinchi Prezidenti etib tayinladi.

Shu vaqt mobaynida shimolda Sovet Ittifoqining ko‘magi bilan Kim Ir Sen boshchiligidida Koreya Xalq Demokratik Respublikasi tashkil qilindi.

Yaqinda oshkor qilingan hujjatlarda ko‘rsatishicha, Shimoliy Koreya Sovet Ittifoqi yordami bilan 1950-yil 25-iyunda Janubiy Koreya hududiga bostirib kirgan. Bu xalqaro mojaroga sabab bo‘lgan Koreys urushining boshlanishi bo‘lgan.

Shimoliy Koreya askarlari Seulni 3 kunda bosib olishdi, avgustda esa janubi-sharqiy port shahar – Pusandan boshqa butun Janubiy Koreya hududi shimolliklar tomonidan okkupatsiya qilindi.

BMT Xavfsizlik Kengashi zudlik bilan Janubiy Koreyaga amaliy va iqtisodiy yordam ko‘rsatishga harakat qildi hamda BMTga a’zo 21 mamlakatdan armiya va tibbiy yordam yuborildi. 15-sentabrda General Duglas Makkartur boshchiligidagi hozirda dunyoga mashhur Inchxon desant operatsiyasidan so‘ng Janubiy Koreya va BMT harbiylari shimolliklarni Xitoy chegarasigacha surib borishdi. Chegarada Xitoy urushga kirishib,

Shimoliy Koreyaga yordam ko'rsata boshladi. Buning oqibatida janubliklar va BMT harbiylari yana mag'lubiyatga uchray boshlashdi hamda 1951-yil 4-yanvarda Seul yana shimolliklar tomonidan bosib olindi.

Ammo asosiy qismini AQSH harbiy kuchlari tashkil etadigan BMT va Janubiy Koreya armiyasi keyinchalik shimollik va xitoyliklarni yana qaytib 38-parallelgacha siqib chiqarishdi, lekin ikki tomon ham ahamiyatli yo'qotishlarga uchradi. Inson omilining yo'qotilishidan tashqari yarimorolning hududi xarobaga aylandi. Yapon kollonizatsiyasi qoldirib ketgan infratuzilmaning ko'p qismi vayron qilingan.

Qon-qarindoshlar o'rtasidagi urush 1953-yilning iyul oyida yarashuv bitimini imzolash bilan tugatildi.

Urush boshlangunga qadar AQSH va Sobiq Ittifoq 38-parallelda Shimoliy va Janubiy Koreyaning chegarasini belgilab berdi. Urush tugagandan so'ng esa 38-parallelning yaqinida yangi Harbiy demarkatsiya chizig'i o'tkazildi. Bu chiziq 4 kilometr kenglikdagi qurolsizlantirilgan hudud bilan o'ralgan bo'lib, bu hudud ikki Koreya o'rtasidagi buffer hudud hisoblanadi. Hozirga kelib Koreya Respublikasi aholisi 50 million kishi bo'lsa, Koreya Xalq Demokratik Respublikasining aholisi esa 25 million kishini tashkil etadi.

### **3. Iqtisodiy taraqqiyot**

1961-yildan 1979-yilga qadar mamlakatni boshqargan Prezident Pak Chjon Xi iqtisodiy rivojlanishning eksportga yo'naltirilgan siyosatini qo'lladi. Prezident Pakni odatda iqtisodiy o'sishni boshqa bosqichga olib chiqqan prezident sifatida qarashadi hamda bunday o'sishni "Xan daryosidagi mo'jiza" deb nomlashadi. Uning besh yillik iqtisodiy o'sish dasturining asosiy maqsadi yirik korporatsiyalar uchun qulay muhit yaratib berishdan iborat bo'lib, bunda aholini ish bilan ta'minlanganlik darajasi oshadi hamda Janubiy Koreyaning dunyoda raqobatbardoshligi ortadi.

Janubiy Koreya iqtisodiyoti importning o'rnini qoplash siyosati o'niga eksportga yo'naltirilgan siyosatni tanlangandan so'ng 1960-yillarning boshlarida mislsiz darajada tez sur'atlarda rivojlandi. Eksportga yo'naltirilgan siyosatda hukumat yengil sanoatning tekstil va kiyim-kechak yo'nalishlariga, ya'ni ko'p mehnattalab sohalarni qo'llab-quvvatlardi hamda shu sohalarda nisbatan ustunlikka ega edi.

1960-70-yillarga kelib hukumat e'tibori yengil sanoatdan yana yuqori qo'shimcha daromadli og'ir va kimyo sanoatiga o'tdi. Temir, po'lat, rangli metallar, kemasozlik, elektronika va kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarish iqtisodiy o'sishda asosiy sohalar hisoblanadi.

1981-yilga kelib asosiy e'tibor ilmiy-tadqiqot va amaliy-konstrukturlik faoliyatiga qaratilgan bo'lib, 80-yilning oxirlarida texnologiya va elektron mahsulotlar eksporti hajmi oshdi. 1990-yilga qadar davom etgan eksportga yo'naltirilgan siyosat tufayli "Samsung", "Hyundai" kabi kompaniyalar, "LG" firmasi kabilar dunyoga mashhur bo'lib ketdi. Davlat hukumatining qo'llab-quvvatlashidan foydalanib, koreys konglomeratlari kapitaltalab og'ir va kimyo sanoatiga investitsiya kiritishardi, bu paytda davlatning o'zi sanoatning qolgan tarmoqlariga hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirishga diqqatini qaratdi.

1970-yilda qishloq aholisini faol ishlab chiqarishga jalb etish va qishloq xo'jaligi sohasini modernizatsiya qilishga mo'ljallangan Semail harakati shakllandi. Semail so'zi "yangi qishloq" degan ma'noni ifodalaydi. Bu harakat qishloqlardagi ahvolni va fermerlarning hayot tarzini yaxshilashga ko'maklashdi. Keyinchalik bu harakat sanoat korxonalariga, shahar hududlariga ko'mak korsatish uchun ham kengaytirildi. Janubiy Koreya o'z bilim va tajribalarini muntazam baham ko'radigan rivojlanayotgan davlatlarda ham Semail harakati tamoyillari qabul qilindi.

Bu rasmda Koreya hukumatidan olingan xom ashyordan foydalangan holda beton yo'l qurishmoqda.

Janubiy Koreya tanlagan eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy rivojlanish strategiyasi juda katta muvaffaqiyatlar keltirdi.

Janubiy Koreyaning hukumat tomonidan boshqarilib turilgan eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy rivojlanish strategiyasi yuksak yutuqlarga olib keldi. Janubiy Koreya ikkinchi

jahon urushidan buyon qabul qiluvchi davlatdan tashqi yordam beruvchi donor-davlatga aylangan yagona mamlakat hisoblanadi. 2014-yilga kelib Janubiy Koreya eksport qilish bo‘yicha 5-o‘ringa chiqqan bo‘lsa, import bo‘yicha 7-o‘rinni egallagan.

### **JANUBIY KOREYANING IQTISODIY RIVOJLANISH OMILLARI**

Janubiy Koreya iqtisodiyoti hayratda qoldiradigan darajada rivojlanishiga sabab uyushgan kuchli rahbarlik tizimi, yaxshi tayyorlangan amaldorlar, talabchan sanoatchilar va yagona maqsadda birlashgan ishchi kuchi bo‘ldi. Yangilikka intiluvchan tadbirkorlar hukumatning eksportni oshirish va sanoatning yangi tarmoqlarini yo‘lga qo‘yishdagi maqsadlariga ijobjiy ta’sir o‘tkazishdi.

Janubiy Koreyada ta’lim tizimining yuqoriligi, o‘zaro uyg‘unlikdagi shaxsiy aloqalar hamda ota-onas, ajdodlarga nisbatan burch tuyg‘usi konfutsiylikdan meros qolgan. Sanoatlashtirish davrida Janubiy Koreyada deyarli barcha ishchilar savodli bo‘lganliklari sababli, yangi ko‘nikmalarni o‘rganishda qiyinchilikka duch kelishmagan.

Shu bilarn birga, ochiq iqtisoiy siyosat oldingi o‘rinlarda turuvchi ilmiy-texnikaviy institut va texnologiyalaning chet eldan kirib kelishiga ijobjiy ta’sir etgan. Tashqi investitsiyalar va Janubiy Koreya davlat jamg‘armalarining yuqori stavkasi og‘ir sanoat sohasini rivojlanishda ko‘maklashayotgan bir davrda chet elda ishlayotgan koreys ishchilaridan kelayotgan pul mablag‘lari ham umumiy iqtisoyot rivojida katta hissa qo‘shegan. Misol tariqasida shuni aytish mumkinki, 1960-yil o‘rtalaridan 1970-yil so‘nggiga qadar katta miqdorda Janubiy Koreyalik hamshira va konchilar GFRga ishlashga jo‘natilgan.

## **4. Demokratik islohotlar**

Janubiy Koreya xalqi erkinlik va demokratiyaga asolangan boshqaruv uchun kurashda faol ishtirok etganlar. 1960-yillardan boshlab mamlakatni Pak Chon Xi, undan keyin esa sobiq harbiy generallar boshqarib borishgan. 1993-yilda Janubiy Koreyada bo‘lib o‘tgan muvaffaqiyatli va erkin saylovlar natijasida mamlakatda fuqarolik boshqaruvi e’lon qilindi.

Hozirda Janubiy Koreya gazeta va telekanallari turli fikrlarni ta’qibdan qo‘rqmagan holda oshkora aytishlari mumkim. Internet va ijtimoiy tarmoqlar barcha joyda mavjud. Barcha Janubiy Koreyaliklar, ayniqsa, yoshlар bir lahzali xatlar va kommunikatsiyalar tizimidan keng foydalanishmoqda.

Janubiy Koreyaning kuchli iqtisodiyoti demokratik huquqlarning cheklanishi davrida yaratilgan bo‘lsa-da, lekin yuqori sur’atlarda iqtisodiy rivojlanishini ta’milagan. Keyinchalik bu iqtisodiy rivojlanish tufayli bosqichma-bosqich demokratik islohotlar amalga oshirilgan bo‘lib, hozirda bunday islohotlar samarasidan rohatlanishmoqda. Shunday bo‘lishiga qaramay, tezkor iqtisodiy o‘sish tufayli ijtimoiy va iqtisodiy tabaqalar sinfi shakllanib, ular keyinchalik demokratlashtirishning tezkorligiga asos bo‘lishdi.

## **5. Koreya Respublikasi jahon sahnasida**

Yuzlab yillar davomida Koreya “tashqi dunyodan ajralgan qirollik” sifatida mavjud bo‘lgan. Shu bilan birga, yarimorolda doimo immigrantlar va savdo-sotiq faoliyati uchun sharoit bo‘lgan. Madaniy artefaktlar va qadimgi yozuvlarga asosan bu hududda tez-tez madaniy almashinuv bo‘lganligini, Xitoy qabilalarining ommaviy ko‘chganligini, arab savdogarlarining faoliyat yuritganligini hamda janubi-sharqiy osiyoliklarning kelganliklarini bilish mumkin. Aslini olganda, yarimorolning janubi-sharqida joylashgan Kyondju shahri Silla qirolliginining poytaxti hisoblanib, Yevropa va Osiyoni bog‘lovchi Ipak yo‘lining sharqiy terminali sifatida qaralgan.

So‘nggi yillarda Janubiy Koreya jahon hamjamiyatining bir bo‘lagi sifatida o‘z xalqi, ishlab chiqarayotgan mahsuloti va o‘z madaniyati bilan tanishishga keng imkoniyat yaratib kelmoqda. Janubiy Koreyalik oddiy talaba o‘zining smartfoniga ancha qattiq bog‘lanib qolgan bo‘lib, u bu smartfon orqali dunyoni ko‘rish orzusida chet elliklar bilan muloqot qiladi, ingliz yoki boshqa chet tillarini o‘rganadi.

Ko‘pchilik hollarda elektron aloqa vositalari zamonaviy Ipak yo‘lining muqobiliga aylanmoqda. Janubiy Koreya internetga kirish imkoniyati bo‘yicha dunyoda yetakchi o‘rirlarni egallaydi. Uning axborot tarmog‘i juda keng qamrovli va uzoq maqsadlarni ko‘zlagan. Koreyslar o‘zlarining fikr, tajriba, bilimlarini shu kabi aloqa kanallari orqali boshqa mamlakat insonlari bilan almashib, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan koreys madaniyatining rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘shib kelishmoqda.

Tarixda madaniy yangilanishlar xalqaro munosabatlarning asosiy elementi hisoblangan. Zamonaviy o‘zaro bog‘liqlikdagi jamiyatda ham ushbu tendensiya davom etadi. Koreys to‘lqini yoki “xallyu” tufayli Janubiy Koreyaning pop musiqalari, kinofilm va televizion serialari ko‘plab chet ellik muxlislar qalbidan joy egallagan. Shu bilan bir qatorda, Janubiy Koreya boshqa xalqlarning madaniy boyligini o‘ziga singdirib olishda davom etmoqda.

### **KOREYSLARNING KUNDALIK HAYOTI**

Ko‘plab koreyslar zamonaviy kiyimlar kiyishadi. Milliy kiyim hisoblangan *Xanbokni* faqat to‘y yoki milliy bayramlarda kiyadilar. *Xanbok* ayollarda kalta nimcha va uzun ko‘ylakdan, erkaklarda kamzul va keng, to‘pig‘ining chetlari yig‘ilgan shimdan iborat bo‘ladi.

Odatiy koreys taomi guruch, sho‘rva va *kimchi* (turli yo‘llar bilan tuzlangan sabzavotlar, jumladan, koreys karami – *pechu*) dan itashkil topgan.

Koreyslar uyning polini isitishda *ondol* deb nomlangan usuldan foydalanishadi hamda bu usul hozirgi zamonaviy uylarda ham keng ishlatiladi. Urbanizatsiya jarayonining

yuqori sur'atlarda kechishi tufayli ko'p qavatli uy xonadonida yashash koreyslar uchun eng maqbul yo'ldir.

*Taekvando* – Koreyaning milliy jang san'ati hisoblanib, hanuzgacha o‘z mashhurligini yo‘qotmagan. Hozirgi davrda *Taekvando* xalqaro sport turlari ro‘yxatidan joy olgan.



**The Academy of Korean Studies  
Center for International Affairs, Division of Understanding Korea Project**

108° Research Complex(Munhyeongwan), The Academy of Korean Studies, 323  
Haogae-ro, Bundang-gu, Seongnam-si, Gyeonggi-do, 13455, Republic of Korea

- Tel. (82) 31-709-6590
- Fax. (82) 31-709-6572

<http://www.ikorea.ac.kr/>